
Ishtirokchilar targ'ibotning yangi usul va ilg'or tajribalari bilan tanishdi.

Farg'ona shahar hokimligining majlislar zalida «Farg'ona viloyatida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, targ'ibotning yangi usul va vositalaridan samarali foydalanish» mavzusida o'quv-amaliy seminari bo'lib o'tdi. Unda shahar hokimligi mas'ullari, mahallalarda faoliyat yuritayotgan xotinqizlar faollari, imom-xatiblar, otinoyilar hamda faollar ishtirok etishdi.

Seminar avvalida Farg'ona viloyati hokimining o'rinbosari, Ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisining o'rinbosari Jamshid Xatamov ishtirok etib, shahrimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish borasida so'z yuritdi. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlariga to'xtaldi.

Tadbir davomida diniy bag'rikenglik, yosh avlod tarbiyasi, milliy ma'naviyat, shu bilan birga xujra va noqonuniy diniy saboq berishni oldini olish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Ochiq va qizg'in o'tgan seminarda ishtirokchilar targ'ibotning yangi usullari va ilg'or tajribalari bilan ham tanishtirildi.

2022-06-25 08:42:31